



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

N. Mirzoyeva

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat Universiteti O'zbekiston-  
Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi*

## MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY PEDAGOGIK G'OYALARINING TAHLILI

### Annotatsiya

Mazkur maqolada ma'rifatparvar, jadidchi, publisist, adib, pedagog Mahmudxo'ja Behbudiyning ilm yo'lida qilingan ishlari, matonati, jasorati, mehnatlari, turli shaharlardagi safarlari, teatrga asos solinganligi, "Padarkush" drammasi, yangi usul maktablari, yangi tartibdagi darsliklari, pedagog sifatida xalq bolalarini bilimli qilish yo'lidagi harakatlari, mashaqqatlari, ta'limiy-tarbiyaviy pedagogik g'oyalari haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Jadid, pedagog, publisist, tetr, ma'naviyat, madaniyat, ma'rifatparvar, drama, nashriyot, yangi usul, darsliklar, maktab, kitoblar tarjimasini.

Bizga ma'lumki Sharq zaminida azaldan dunyo ahlini ilmi bo'lishga da'vat etgan buyuk zotlar yashab ijod etgan. Shunday oqilu fozil kishilardan biri Samarqand farzandi Mahmudxo'ja Behbudiydur. Behbudi 1875-yilda Samarqand shahari yaqinidagi Baxshiteppa qishlog'ida dunyoga kelgan. Uning avlodi ota tomondan Ahmad Yassaviyga borib tutashsa, ona tomondan Urganj xo'jalariga borib taqalardi. Behbudi qisqa umri davomida insonlarni ilm, bilim, kasbu hunar egallashga, qolaversa til o'rganishga da'vat etib, xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otmoq uchun umrining oxirigacha kurashib kelgan. Bugungi kun yoshlari Mahmudxo'ja Behbudi kabi ulug'larimizni bilishlari, ular ash'oru osorini o'rganishi shartdir. Zero ajdodlarning mehnatlari, xizmatlari va albatta tanlangan ezgu yo'llarini davom ettirish, qadrlash, e'zozlash va omma ahliga taqdim etishlik biz



vorislarning vazifamizdir. Mahmudxo'ja Behbudiyning hayotiga nazar tashlarekanmiz, 18 yoshligidanoq qozixonalarda mirzalik qilib, keyinchalik qozi, mufti darajasigacha yetadi. Balkim xalqning ilimli qilishlik, faqatgina bilim insonlar yo'lini yorug' qiladigan vosita, ilmdan boshqa najot yo'qligini aynan mana shu xalqning muammolarini hal qilish paytidanoq yosh Behbudiyning kelajakda ustuvor maqsad qo'yishiga turtki bo'lgan bo'lsa ne ajab. O'zbek adabiyotining sultoni Mir Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" asarida: "Kimki umrini insonlar xizmati uchun sarflasa, olamdan o'tsada, nomi abadiy qoladi...Umr bevafo dir, mardona hayot abadiydir" mazmunidagi fiklar keltirilgan. Darhaqiqat jamiyatning rivoji mana shunday insonlarning ezgu amallari va ilmning kuchiga ko'proq bog'liqdir. Mahmudxo'ja Behbudiyning bemaolol xalqning xizmati uchun yashagan kishilar sirasiga kiritaolamiz. Zero u insonlarning baxtu saodati uchun butun hayotini baxshida etgan zotdir. Aynan Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodi haqida o'z zamondoshari Sadridin Ayniy, Laziz Azizzoda, Hoji Muinlar tomonidan bir qator maqolalar matbuotda chop etilgan. Ayniqsa Hoji Muinning "Mehnatkashlar tovushi" (1922) "Zarafshon" (1923) gazetalarida chop etilgan Behbudiy tarjimai holi haqidagi maqolalari muhim ahamiyatga ega. Keyingi Behbudiyshunoslar, olimlar, tadqiqotchilar Solih Qosimov, Ahmad Aliyev, Naim Karimov, Sirojiddin Ahmedov, Sherali Turdiyev, Halim Sayid, Normurod Avazov, Zebo Ahrorovalarning ishlarida ham Hoji Muin ma'lumotlari asos qilib olingan. Mamlakatimizning mustaqillikka erishganidan so'ng jadidlar faoliyatini o'rgnish, ularning qilgan mehnatlarini qadrlashga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor berildi. Shu asnoda Behbudiy ham qayta kashf etila boshlandi.

Behbudiy ko'pgina xorij davlatlar va shaharlarda jumladan, Misr, Turkiya, Hijoz, Rossiyaning Moskva, Sank-Peterburg, Nijniy, Qozon, Ufa va boshqa o'lkalarda bo'lib, u yerdagi xalqlarning yashash tarzini o'z xalqini turmush darajasi bilan taqoslardi va vatandoshlarining porloq kelajagi uchun ko'p harakat qilib, ko'p qayg'urardi. Ayniqsa G'arb va Sharq mamlakatlariga qilgan safari Mahmudxo'janing dunyo qarashini keskin o'zgarishiga sabab bo'lgan. Aynan ma shu kabi sayohatlar, xizmat safarlari davrida buyuk jadidchida o'z diyorida yangi usuldagi (usuli jadid) maktablarni barpo etish fikri mustahkamlanib borgan. Keyinroq Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy, Rajabamin qishlog'ida Abduqodir Shakuriylar bilan birgalikda usuli jadid, ya'ni yangi maktab ochadi. Endi yangi usul maktablariga yangi darsliklar kerak edi. Bunday yuksak ma'suliyatni ham Mahmudxo'ja o'z zimmasiga oladi va yangi darsliklarni yaratishga bel bog'laydi. Birin ketin "Risoi asbobi savd" ("Savod chiqarish" 1904), "Risoi jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish" 1905), "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906), "Kitobat ul- atfol" ("Bolalar xati" 1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi kitoblarni chop etilib, yangi usul maktabida qo'llagan. Behbudiyning Qozon, Ufaga borishdan maqsad aynan u yerdagi ta'lim tizimini o'rganib, tatar ziyolilari bilan ilm yo'lidagi hamkorlik aloqalarni yo'lga qo'yishdan iborat edi. Yangi usuldagi maktablar o'z ishini davom ettirar edi, biroq faqatgina buning o'zini ma'rifat uchun yetarli deb bilmagan Mahmudxo'ja xalqqa shunday oina kerakki unda millat ham ezgu niyat, istak, umid va ham nafratu armonlarini ko'ra olsin, zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi degan fikr bilan teatr va matbuot bunyod etish sari harakat qila boshladi. Niyoyat "Padarkush" drammasi maydonga keldi. "Padarkush" milliy dramachiligining hamma birdek e'tirof etgan birinchi namunasi. Mutaxassislar ushbu drammani ham janr, ham mazmiga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Asar dastlab Samarqandda 1914-yil 25-yanvarda sahnaga qo'yildi. Muallif "Milliy fojia"

atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan hihoyatda boy. Asar jaholat va nodonlik, o'qimagan bolaning noto'g'ri yo'llarga kirib o'z otasini fojiviy o'lim topishi haqida hikoya qiladi. "Padarkush" milliy drammachilikning hamma birdek iliq e'tirof etgan birinchi namunasi hisoblanadi. Ushbu drama ta'sirida Abdullo Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" drammasi yaratildi. Xuddi shunday keyenchalik o'zbek dramaturgiyasida yangi asarlarning tug'ilishi sezilarli darajada ko'paya boshladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy "...teatr ibratnomadur teatr vaz'xonadur, teatr ta'zir adabidur. Teatr oinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rub, karquloqsizlar eshitib, asarnalur. Xulosa teatr vaz' va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zarariniayoonan ko'rsatguvchidir. Hej kimni rioya qilmasdan to'g'ri saylaguvxhi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir..." deb teatr haqida ta'rif bergan. [6]

Mahmudxo'ja Behbudiy matbuotning rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxslar sirasiga kiradi. Uning matbuot bilan shug'ullanish harakatlari 1913-yildan boshlangan bo'lib, Samarqand gazetasining ikki ya'ni turkiy va forsiy tillarda chop etilishini bevosita misol qila olamiz. Dastlab bu gazeta haftada ikka marta, ikki va keyirroq to'rt sahifadan chop etila boshlagan. Lekin keyinroq, gazetaning 45-chi sonidan so'ng esa moddiy tomonlama tanqisligi tufayli ushbu gazetaning chopi to'xtatiladi. "Oina" jurnali ham aynan Mahmudxo'janing sa'y-harakatlari bilan chiqarila boshladi. Ushbu majalla suratli chiqardi va unda asosan materiallar o'zbek tilida, faqatgina qisqa tojikcha she'rlar, rustilidagi ixcham e'lonlar berib borilardi. Bu jurnal Kafkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hinduston va Turkiyagacha yetib borgan. "Oina"ning qadru qimmatini aholi orasida juda baland edi. Bundan tashqari Behbudiy kitoblarni chop etishlikka ham alohida e'tibor berilib, bu borada qizg'in shug'ullangan. Keyenchalik o'zining shaxsiy "Nashriyati Behbudiy (Нашриѳти Бѳхбудия)" nomli xususiy nashriyatini ochadi. Bu nashrxonada bir necha asarlarni xorij tilidan mahalliy tilga yoki o'zbekcha, tojikcha asarlarni rus tilida tarjima qilib nashr etadi. Bundan tashqari o'zining "Behbudiy kutubxonasi" nomli kutubxonasini ham tashkil qiladi. Bundan tashqari "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), "Kitobatul atfol" ("Bolalar maktublari"), "Muxtasari ta'rixi islom" ("Islomning qisqacha ta'rixi"), "Madxali jug'rofiyai umroniy", ("Aholi geografiyasiga kirish") kabi bir qator darsliklarning muallifi ham sanaladi. Shu kabi kitoblar o'z davrining yangi usul maktablariga darslik sifatida qo'llanilgan.

Shunday buyuk isharning egasi bo'lgan ulug' inson, davrining adolatsiz siyosati va "buyuk" siyosat ustunlari tufayli 1919-yil Qarshida qatl etilgan. Shukronalar bo'lsinki mustaqilligimizdan so'ng boshqa jadidchi olimu fozillar kabi Behbudiy shaxsiyati ham qayta tug'ildi, uning xotirasi qadrlandi va hamisha qadrlanib kelinmoqda. Albatta Behbudiy kabi buyuklarimizning millat, Vatan, jamiyatning kelajaki uchun qilingan ezgu amallariyu buyuk xizmatlari yosh avlodning ruhiyatida Vatanparvarlik, kitobsevarlik, o'z-o'zini anglash kabi tuyg'ularni shakllantirishga xizmat qiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr o'zbek adabiyoti, matbuoti, madaniyatining atoqli namoyandasidir. Milliy dramaturgiya va sahna san'atining shakllanishi, yangicha ilg'or hamda serko'lam publisistikaning vujudga kelishi uning nomi bilan bog'liq. Millat tafakkuri tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk siymoning asarlari, g'oyalari eskirmasdir va doimo qadrlidir.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Qosimov B. Mahmudxo'ja Behbudiy (Tanlangan asarlar). – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.



2. Xayrullayev M. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
3. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. - Toshkent: O'qituvchi, 2002.
4. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi O'zbekistonning yangi tarixi Markazi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, 1999.
5. Пясковский А. Революция 1905-1907 годов в Ташкенте. М., 1958
6. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. - Тошкент: Маънавият, 2004.
7. «Оуна» jurnali, 1914 -yil , 29-son, 550-553-betlar.